XALQ DEPUTATLARI MUZRABOT TUMANI KENGASHINING QARORI

Muzrabot tumani, Onadiyor ko‘chasi 1-uy. 191300, tel.: (+99876) 349-10-67

2023 - yil 30 - dekabr VI-67-202-8-115-K/23 Muzrabot tuman hokimligi

Muzrabot tumanining 2024-yilgi mahalliy byudjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Byudjet kodeksining 99-moddasi, “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalq deputatlari Muzrabot tumani Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 25-dekabrdagi “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi O‘RQ-886-Qonuni ijro va rahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Muzrabot tumani mahalliy byudjetining 2024-yil uchun daromadlari **79, 394 milliard so‘m** xarajatlari **160,453 milliard so‘m** prognoz qilinganligi hamda Respublika byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar **55,149 milliard so‘m** miqdorida tasdiqlanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024-yil uchun mahalliy byudjet daromadlar prognozi ko‘rsatkichi **1-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

4. Tuman byudjetidan 2024-yilgi hududiy byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari **2-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

5. 2024-yil uchun tuman byudjetiga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari **3-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

6. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlarining prognozi **4-ilovaga** muvofiq ma’lumot uchun qabul qilinsin.

7. 2024-yil uchun tuman mahalliy byudjetiga viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdori **5-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

8. 2024-yil uchun tuman byudjeti zaxira jamg‘armasi hajmi **1,4 milliard so‘m** miqdorida belgilansin.

9. 2024-yil tuman byudjeti shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan byudjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **767,8 million so‘m 6-ilovaga** muvofiq belgilansin.

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bilan 2024-yil xalq deputatlari Kengashlarini mahalliy byudjetni boshqarishda xususan mahalliy byudjet harajatlarini xududiy byudjet mablag‘lari taqsimlovchilar kesimida tasdiqlash va ularning Kengash oldidagi hisobdorligini belgilash bo‘yicha vakolatlari kengaytirilganligi inobatga olinsin.

Shuningdek, 2024- yilda quyidagi soliq turlari:

Quyidagi soliq turlari tuman byudjetiga to‘liqligicha o‘tkazib beriladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

jismoniy shaxslarning mulklarni ijaraga berishidan olinadigan yillik daromadlari bo‘yicha deklaratsiyaga asosan hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan daromad solig‘i;

sement va ohaktoshdan tashqari, alohida noruda qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

yig‘imlar;

yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun daromad solig‘i;

yuridik shaxslardan olinadigan mulk solig‘i;

aylanmadan olinadigan soliq.

b) Quyidagi soliq turlari va boshqa majburiy to‘lovlar viloyat byudjeti hamda tumanlar byudjetlari o‘rtasida taqsimlanadi:

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

elektr stantsiyalaridan boshqa to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad soligi;

benzin, dizel yoqilg‘isi va gazning chakana sotuvi uchun aktsiz solig‘i;

davlat aktivlarini sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo‘yicha olingan daromadlar.

v) mobil aloqa xizmatlari uchun aktsiz solig‘i va alkogol mahsulotlari, shu jumladan, pivo uchun aktsiz solig‘idan tushumlar tuman aholisining viloyat aholisidagi ulushiga muvofiq o‘tkazib beriladi.

11. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Xolniyozov), tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi boshlig‘i (I.Kushakov), tuman soliq inspeksiyasi (F.Xudayorov) tuman hokimligi va mas’ul tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat va dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlarining rejalashtirilishini nazarda tutgan holda shakllantirish;

mahalliy byudjet prognoz ko‘rsatkichlarini o‘z vaqtida va samarali bajarish;

byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas’uliyatni yanada kuchaytirish;

tuman mahalliy byudjetiga soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlarning to‘liq tushumini ta’minlash;

byudjet daromadlar bazasini oshirish va qo‘shimcha rezervlarni aniqlash zarurligiga alohida e’tibor qaratsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (F.Xudayorov) O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to‘liq va to‘g‘ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o‘z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig‘i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo‘yicha doimiy tahlililar o‘tkazgan holda, soliqlarni to‘liq hisoblanishini ta’minlash hamda ushbu soliq to‘lovlari bo‘yicha soliq qarzdorligiga yo‘l qo‘ymaslik choralarini ko‘rish;

aylanmadan soliq turi bo‘yicha soliq to‘lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o‘rnatish hamda zarur hollarda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o‘tkazish;

bunda, mazkur yo‘nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ‘ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallar tayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga alohida e’tibor qaratsinlar.

xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig‘ining soliq bazasini oshirish vazifasi yuklatilsin.

13. Tuman soliq inspeksiyasi (F.Xudayorov), Kon-geologiya faoliyatini nazorat qilish inspektsiyasining janubiy mintaqaviy inspektsiyasi hamda tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aks ettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanish lozimligi alohida belgilab qo‘yilsin.

14. Majburiy ijro byurosi Muzrabot tumani bo‘limi (I.Mamatqulov) va tuman soliq inspeksiyasi (F.Xudoyorov)ga hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to‘lovlar bo‘yicha mavjud soliq qarzdorliklarini byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko‘rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliq qarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo‘yicha barcha

kompleks chora-tadbirlar ko‘rish vazifasi yuklatilsin.

15. Xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalaridan foydalanish to‘g‘risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflar asosida byudjet qonunchiligiga to‘liq rioya etilgan holda Kengash qarori loyihasini ishlab chiqilishiga;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag‘larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o‘rnatishga va natijalari bo‘yicha tavsiyalar berishga monitoring qilishga;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilishida ishtirok etsin va ushbu mablag‘larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirishga mas’ul etib belgilansin.

16. Tuman hokimligi:

tuman byudjeti jami xarajatlarining 5 foizi hamda shakllangan qo‘shimcha mablag‘larning kamida 30 foizini jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”ga yo‘naltirsin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashi deputatlari, Yoshlar ishlari agentligi tuman bo‘limi, tuman hokimligi huzuridagi Jamoatchilik Kengashlari hamda yangi joriy etilgan hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta’minlash maqsadida aholiga keng targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borishga ma’sul etib belgilansin.

17. Mahalliy byudjetning qo‘shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruktsiya qilish va ta’mirlash ishlari olib borilayotgan ob’ektlar ro‘yxati, shuningdek, qurilish-ta’mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar har chorak yakunlariga ko‘ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda hokimlik rasmiy veb-saytiga joylashtirib borilsin.

18. Tuman hokimligi Axborot xizmati rahbari (J.Abdurasulov), “Muzrabot” gazetasi tahririyati (A.Yo‘ldashev)larga Qarorda belgilangan ayrim soliqlar va to‘lov stavkalari, soliq solish tartiblari hamda boshqa ma’lumotlarni ommaviy

axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

19. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi va tuman hokimligi zimmasiga yuklatilsin.

20. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi **A.Ismailov**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
1-ilova

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

2024-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari		
		ming so‘mda
T/R	**Daromad turlari**	**Jami**
ЖАМИ		**79 394 100,0**
1	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	630 000
2	Yagona soliq to‘lovidan Davlat byudjetiga ajratmalar (aylanmadan olinadigan soliq)	3 637 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	30 162 600
4	Qo‘shilgan qiymat solig‘i	
5	Aktsiz solig‘i, jami	10 819 000,0
	- benzin, dizel yoqilg‘isi va gaz realizatsiyasidan soliq	10 819 000,0
6	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	1 749 000,0
7	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	5 173 000,0
8	Yuridik shaxslar yer solig‘i	4 140 000,0
9	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	18 232 000,0
10	Yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq (noruda materiallari)	200 000,0
11	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	1 877 500,0
12	Davlat boji	
13	Jarimalar	
14	Ijara to‘lovi	100 000,0
15	Davlat tashkilotlarining sof foydasidan daromad	
16	Yig‘imlar	2 674 000,0
17	Xususiylashtirishdan tushgan mablag‘lar	
II.	**Respublika budjetidan ajratilgan tartibga soluvchi budjetlararo transfertlar**	**81 059 305**
Daromadlar hammasi		**160 453 405**

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
2-ilova

2024-yil uchun Muzrabot tumani byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan parlament ajratmalarining cheklangan miqdorlari

ming so‘mda

№	Ko‘rsatkichlar	Miqdori
Xarajatlar miqdori, Jami		**160 453 405,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	160 453 405,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Tuman va shaxar mahalliy byudjetlariga transfertlar	
1.	**Xalq ta’limi bo'limiga**	**13 251 614,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 251 614,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
2.	**Maktabgacha ta’lim**	**9 731 112,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	9 731 112,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
3.	**Sog‘liqni saqlash bo'limiga**	**73 752 153,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	73 752 153,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
4.	**Yoshlar agentligini saqlash xarajatlari**	**0,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	0,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
5.	**Madaniyat bo'limiga**	**1 530 855,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 530 855,0

	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
6.	**Sport bo'limiga**	**2 634 830,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	2 634 830,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Zaxira jamg’armasiga	**1 424 954,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 424 954,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
	Fermerlar xo‘jaliklari buxgalteriya markazi	**403 919,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	403 919,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
7.	**Vetlabaratoriya bo'limiga**	**402 289,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	402 289,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
8	**Irrigatsiya tizimiga**	**3 288 807,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	3 288 807,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
9	**Veterinariya bo'limiga**	**1 449 821,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 449 821,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
10	**Obodonlashtirish boshqarmasiga**	**13 327 356,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	13 327 356,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

11	**Xokim yordamchilarining tavsiyalari asosida mahalla infratuzilmasini yaxshilash uchun**	**1 801 878,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	1 801 878,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
12	**Boshqaruv organlari tashkilotlariga**	**20 951 649,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	20 951 649,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
13	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi (ochik byudjet partaliga)**	**16 414 058,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	16 414 058,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
14	**Ijtimoiy moslashuv markazlari**	**69 710,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	69 710,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	
15	**Ozodlikdan maxrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi**	**18 400,0**
	shu jumladan:	
	joriy xarajatlar	18 400,0
	ob’ektlarni loyihalashtirish, qurish (rekonstruktsiya qilish) va jihozlash uchun kapital qo‘yilmalar	

Xalq deputatlari Muzrabot tuman Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
3-ilova

Umumdavlat soliqlaridan Muzrabot tumani mahalliy byudjetiga ajratmalar me’yori 2024-yil uchun

Foiz hisobida

T/R	Shaxar va tumanlar nomi	Aylanmadan soliq	Yakka tartibdagi tadbirkorlardan olinadigan qat’iy belgilangan miqdordagi daromad solig‘i (3 111 401)	Jismoniy shaxslarning yer solig‘i	Jismoniy shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq (Elektr stansiyalari tomonidan to‘lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliqdan tashqari)	Benzin, dizel, siqilgan gaz, suyultirilgan gaz yoqilg‘isini yakuniy iste’molchilarga sotishdan aksiz solig‘i	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	Noruda qurilish materiallari uchun yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	Yuridik shaxslar yer soligi	Yig‘imlar	Ijara to‘lovlari	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallanmagan yer uchastkalarni realizatsiya qilishdan tushadigan tushumlar	Qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yer uchastkalarini ijaraga berishdan tushadigan (3 450 950, 3450 951 daromad kodi bo‘yicha) tushumlar
1	Muzrabot tumani	100	100	100	100	65	50	100	100	100	50	100	100	50	50

Izox: * Yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan barcha soliqlar, soliqsiz tushumlar hamda yuqorida ko‘zda tutilmagan barcha boshqa tushumlar viloyat budjetiga yo‘naltiriladi.

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
4-ilova

Muzrabot tuman mahalliy byudjetlarining 2024-yil daromadlari va xarajatlariing chegaraviy hajmi

ming so‘mda

Hudud nomi	Daromad	Xarajat
JAMI	**79 394 100,0**	**160 453 405,0**
Muzrabot tuman	79 394 100,0	160 453 405,0

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
5-ilova

Muzrabot tuman mahalliy byudjetining 2024-yilgi ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari

ming so‘mda

Shahar va tumanlar	Tartibga soluvchi transfert miqdori jami	Shundan, aksiz solig’i tushum hisobidan ajratiladigan mablag’lar*
JAMI	**81 059 305,0**	**25 966 210,0**
Muzrabot tuman	81 059 305,0	25 966 210,0

Xalq deputatlari Muzrabot tuman
Kengashining
2023-yil 30-dekabrdagi
VI-67-202-8-115-K/23-son qaroriga
6-ilova

Tuman mahalliy byudjetida yo‘l qo‘yiladigan eng kam mablag‘lar miqdori 2024-yil uchun

ming so‘mda

T/r	Hudud nomi	Miqdor
	JAMI	**767 800,0**
1	Muzrabot tumani	767 800,0